



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махамаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Исломий банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислом молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъсири.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларидан фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

real masalalarda ko‘pincha har ikkala yondashuvdan oqilona foydalaniladi. Integro-differensial tenglamalar ekonometrik modellashning yuqori darajadagi instrumenti hisoblanadi. Ular iqtisodiy tizimlarning dinamik murakkabligini, vaqt bo‘yicha kechikishlarni va to‘plangan tajribani aks ettira oladi. Garchi ushbu tenglamalarni yechish va tahlil qilish matematik murakkabliklarni keltirib chiqarsa-da, zamonaviy hisoblash texnikalari va dasturiy ta‘minotlar (Mathcad, Maple, MATLAB, Python, R) bu muammolarni bartaraf etishga yordam bermoqda. Kelajakda iqtisodiy jarayonlarni yanada aniqroq prognozlash uchun IDT va sun‘iy intellekt algoritmlarini uyg‘unlashtirish muhim tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Volterra, V. "Theory of Functionals and of Integral and Integro-Differential Equations".
2. Gandolfo, G. "Economic Dynamics". Springer.
3. Hritonenko, N., & Yatsenko, Y. "Mathematical Modeling in Economics, Ecology and the Environment".
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma‘lumotlari va iqtisodiy tahlillari.
5. Zamonaviy ekonometrika va matematik modellashning bo‘yicha ilmiy jurnallar materiallari.

UDK: 338.43:331.101.262

**XORIJIY MAMLAKATLARDA INSON KAPITALIDAN QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB
CHIQUARISHIDA SAMARALI FOYDALANISH TAJRIBALARI**

**ОПЫТ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОМ ПРОИЗВОДСТВЕ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ**

**EXPERIENCES OF EFFECTIVE USE OF HUMAN CAPITAL IN AGRICULTURAL
PRODUCTION IN FOREIGN COUNTRIES**

Sarimsakov Baxtiyor Raxmonjanovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).

Usmonov Jahongir Qosimjonovich
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida inson kapitalidan samarali foydalanish tajribalari tahlil qilingan. Rivojlangan davlatlar — Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya va AQSH misolida inson kapitalini shakllantirish, kapitallashtirish va innovatsion rivojlantirish mexanizmlari o‘rganilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, inson kapitalini rivojlantirish ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi orqali amalga oshirilganda qishloq xo‘jaligida yuqori samaradorlikka erishiladi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotlarda inson kapitalidan foydalanishdagi farqlar va institutsional muammolar ham aniqlangan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, qishloq xo‘jaligi, innovatsiya, mehnat unumdorligi, ta‘lim tizimi, Yaponiya tajribasi, Germaniya modeli, Xitoy agrosiyosati.

В данной статье анализируется опыт эффективного использования человеческого капитала в сельскохозяйственном производстве в зарубежных странах. Механизмы формирования, капитализации и инновационного развития человеческого капитала изучаются на примере развитых стран – Японии, Германии, Китая, Южной Кореи и США. Результаты анализа показывают, что при развитии человеческого капитала посредством интеграции образования, науки и производства в сельском хозяйстве достигается высокая эффективность.

Одновременно выявляются различия и институциональные проблемы в использовании человеческого капитала в национальных экономиках.

Ключевые слова: человеческий капитал, сельское хозяйство, инновации, производительность труда, система образования, японский опыт, немецкая модель, китайская сельскохозяйственная политика.

This article analyzes the experiences of effective use of human capital in agricultural production in foreign countries. The mechanisms of formation, capitalization and innovative development of human capital are studied on the example of developed countries — Japan, Germany, China, South Korea and the USA. The results of the analysis show that when human capital development is carried out through the integration of education, science and production, high efficiency is achieved in agriculture. At the same time, differences and institutional problems in the use of human capital in national economies are also identified.

Keywords: human capital, agriculture, innovation, labor productivity, education system, Japanese experience, German model, Chinese agricultural policy.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror va samarali tashkil etish, fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda qishloq hududlarida joylashgan korxonalar faoliyatini bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida yuritish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining barqaror foyda asosida rivojlanishi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur masalaning dolzarbligi, avvalo, aholi sonining o‘sishi bilan bog‘liq. Jumladan, 2021–2024-yillar mobaynida respublika aholisi 6,4 foizga o‘tib, 37 543,2 ming kishini tashkil etgan. Shu davrda qishloq aholisi soni 17335,5 mingdan 18 403,8 ming kishigacha, ya‘ni 6,2 foizga ko‘paygan. Bu holat qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning muttasil oshib borayotganini ko‘rsatadi.

Tahlil qilinayotgan davrda yalpi ichki mahsulot hajmi 520536,6 mlrd so‘mdan 1454573,9 mlrd so‘mgacha o‘tib, qariyb 1,8 barobarga oshgan. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 317026,6 mlrd so‘mdan 462839,2 mlrd so‘mgacha ko‘paygan. Biroq, qishloq xo‘jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 38,1 foizdan 31,1 foizga kamaygan. Bu esa iqtisodiyot tarmoqlari tarkibiy o‘zgarishga uchrayotganini va qishloq xo‘jaligida samaradorlikni yanada oshirish zarurligini anglatadi.

Yuqoridagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishda inson kapitalini innovatsion asosda shakllantirish va kapitallashtirish muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish va ularning samarali modellarini milliy sharoitga moslashtirish ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Xitoy, Yaponiya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadli investitsiyalar, zamonaviy texnika va ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi. Ushbu mamlakatlarda inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta‘lim tizimini rivojlantirish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga ustuvor ahamiyat beriladi.

AQSH, Xitoy, Germaniya, Angliya, Shveysariya va Finlyandiya kabi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlangan davlatlarda inson kapitali ishlab chiqarish jarayonining markaziy omili sifatida qaraladi. Bu mamlakatlarda ishlab chiqarish samaradorligi inson resurslarining bilim, malaka va innovatsion qobiliyatiga bevosita bog‘liq ravishda baholanadi [1].

Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan Boltiq bo‘yi davlatlari, Janubiy Koreya, Tayland va Tayvanda aholining qarish tendensiyasi mehnat resurslari tarkibiga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mehnat bozorida nafaqa yoshiga yaqinlashgan aholi ulushining ortishi ayrim hollarda mehnat unumdorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli mazkur davlatlarda inson kapitalini rivojlantirish, ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion iqtisodiyotga o‘tishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Tabiiy resurslarga boy ayrim davlatlarda (masalan, uglevodorod resurslariga ega mamlakatlarda) iqtisodiy o‘shis asosan resurs omillari hisobiga ta‘minlanadi. Biroq barqaror va uzoq muddatli rivojlanish uchun inson kapitalini rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan ayrim Afrika davlatlarida qishloq xo‘jaligi asosan an‘anaviy, qo‘l mehnatiga tayangan usullarda amalga oshiriladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligining pastligi va ichki bozor doirasi bilan cheklanib qolishiga olib keladi.

Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inson kapitalini kapitallashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash va oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish iqtisodiyot tarmoqlarining, jumladan qishloq xo‘jaligining barqaror o‘shishini ta‘minlashning asosiy sharti hisoblanadi. Shu bois, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda inson kapitalini innovatsion asosda shakllantirish va samarali boshqarish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Yaponiya tajribasi

Yaponiya qishloq xo‘jaligida inson kapitalini samarali shakllantirish va undan foydalanish bo‘yicha dunyoda eng rivojlangan modellardan biri hisoblanadi. Mamlakat tabiiy resurslarga boy bo‘lmaganiga qaramasdan, yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishgan bo‘lib, bu natija asosan inson kapitalini tizimli rivojlantirish bilan bog‘liqdir.

Yaponiyada inson kapitalini shakllantirish jarayoni uzluksiz ta‘lim tizimi asosida amalga oshiriladi. Ta‘lim tizimida mehnat madaniyati, intizom va innovatsion fikrlash qobiliyatini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Qishloq xo‘jaligi sohasi uchun mutaxassislar tayyorlashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega.

Mamlakatda ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasida uzviy integratsiya mavjud. Oliy ta‘lim muassasalari va agrar markazlar fermer xo‘jaliklari hamda sanoat korxonalari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu esa inson kapitalining real ishlab chiqarish jarayonida shakllanishini ta‘minlaydi.

Yaponiyada mehnat bozori nisbatan barqaror bo‘lib, xodimlarning bir korxonada uzoq muddat ishlashi inson kapitalining doimiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Mutaxassislar rotatsiya tizimi orqali turli vazifalarga o‘tkazilib, ularning kasbiy ko‘nikmalari kengaytiriladi.

Qishloq xo‘jaligida yuqori texnologiyalar — robotlashtirilgan tizimlar, avtomatlashtirilgan teplitsalar va raqamli monitoring usullari keng qo‘llaniladi. Bu texnologiyalarni samarali ishlatish uchun yuqori malakali inson kapitali zarur bo‘lib, davlat tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlanadi.

Yaponiyada inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar yuqori bo‘lib, korxonalar daromadining sezilarli qismi kadrlar tayyorlash va rivojlantirishga sarflanadi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi ko‘p hollarda oilaviy fermerlik tizimi asosida tashkil etilgan bo‘lib, bilim va tajriba avloddan-avlodga o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligida samaradorlikka erishishning asosiy omili inson kapitalini uzluksiz, tizimli va innovatsion asosda rivojlantirishdir. Ta‘lim, mehnat madaniyati va texnologiyalar integratsiyasi agrar sektorning barqaror o‘shishini ta‘minlaydi.

Germaniya tajribasi

Germaniya qishloq xo‘jaligi sohasida inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanish bo‘yicha yuqori darajada rivojlangan tizimga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Tabiiy resurslar nisbatan cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, Germaniya yuqori texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot va kuchli ta‘lim tizimi asosida agrar sektorning barqaror rivojlanishini ta‘minlab kelmoqda.

Germaniyada inson kapitalini shakllantirish jarayoni dual ta‘lim tizimi asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizim nazariy bilimlarni universitet va kasb-hunar o‘quv yurtlarida o‘qitish hamda amaliy ko‘nikmalarni ishlab chiqarish korxonalarida shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv qishloq xo‘jaligi mutaxassislarining real ishlab chiqarish sharoitiga tez moslashishini ta‘minlaydi.

Mamlakatda ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasida kuchli integratsiya mavjud. Agrar universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari fermer xo‘jaliklari hamda agrosanoat korxonalari bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Bu esa yangi texnologiyalarni tez joriy etish va inson kapitalining innovatsion rivojlanishini ta‘minlaydi.

Germaniyada davlat inson kapitaliga investitsiyani strategik ustuvor yo‘nalish sifatida qaraydi. Ta‘lim tizimiga yo‘naltiriladigan mablag‘lar yuqori bo‘lib, bu soha iqtisodiy rivojlanishning asosiy

drayveri hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlikka erishishda malakali kadrlar muhim rol o‘ynaydi.

Agrar sohada mutaxassislar tayyorlash jarayoni ilmiy tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘langan. Universitetlarda olib boriladigan ilmiy ishlar bevosita ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etiladi. Bu esa inson kapitalining doimiy yangilanib borishini ta‘minlaydi.

Shuningdek, Germaniyada qishloq xo‘jaligi asosan yuqori texnologiyali, avtomatlashtirilgan va raqamlashtirilgan tizimlarga asoslangan. Bu tizimlarni samarali boshqarish uchun yuqori malakali mutaxassislar zarur bo‘lib, ular doimiy ravishda qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlaridan o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda, Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligida inson kapitalining samarali rivojlanishi dual ta‘lim tizimi, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda davlatning strategik investitsiyalari bilan bevosita bog‘liqdir. Bu omillar agrar sektorning innovatsion va barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

Xitoy tajribasi

Xitoy Xalq Respublikasi qishloq xo‘jaligida inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanish bo‘yicha o‘ziga xos va keng qamrovli tizimga ega davlat hisoblanadi. So‘nggi o‘n yilliklarda mamlakat agrar sektorda tez sur‘atlarda rivojlanib, ilm-fan, texnologiya va inson kapitaliga asoslangan yondashuv orqali yuqori natijalarga erishdi.

Xitoyda inson kapitalini rivojlantirish jarayoni uzluksiz ta‘lim tizimi asosida tashkil etilgan bo‘lib, u maktabgacha ta‘limdan boshlanib, oliy ta‘lim va kasbiy qayta tayyorlash bosqichlarigacha davom etadi. Bu tizim qishloq aholisi va fermerlar uchun ham keng imkoniyatlar yaratib, ularning bilim va ko‘nikmalarini doimiy yangilab borishni ta‘minlaydi.

Mamlakatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi asosan yuqori darajada mexanizatsiyalashgan va raqamlashtirilgan tizimga o‘tgan. Zamonaviy agrotexnologiyalar, aqlli sug‘orish tizimlari, dronlar va sun‘iy intellektdan foydalanish inson kapitaliga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Shu sababli malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Xitoyda 300 milliondan ortiq fermer xo‘jaliklari mavjud bo‘lib, ular qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy qismini tashkil etadi. Fermerlarni bilim va texnologiyalar bilan ta‘minlash uchun davlat tomonidan keng ko‘lamli o‘quv dasturlari va maslahat xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan.

Shu bilan birga, Xitoy tajribasida inson kapitalidan foydalanishda ayrim tizimli muammolar ham mavjud. Jumladan, fermer xo‘jaliklarining bozor axborotiga to‘liq ega emasligi, mahsulotlarni sotish zanjirining murakkabligi va vositachilik tizimining kengligi samaradorlikka ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatadi.

Biroq davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va agrar sektorni modernizatsiya qilish inson kapitalining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida texnologik innovatsiyalarni joriy etish va fermerlarni qayta tayyorlash tizimi muhim rol o‘ynamoqda.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligida inson kapitalini rivojlantirish uzluksiz ta‘lim, davlat qo‘llab-quvvatlashi va raqamli texnologiyalar integratsiyasi asosida amalga oshirilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bu model agrar sektorni modernizatsiya qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreya qishloq xo‘jaligida inson kapitalini rivojlantirish va undan samarali foydalanish bo‘yicha innovatsion yondashuvni amalga oshirgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat qisqa tarixiy davr ichida agrar iqtisodiyotdan yuqori texnologiyali iqtisodiyotga o‘tishga erishgan bo‘lib, bunda inson kapitali asosiy omil sifatida xizmat qilgan.

Dastlabki bosqichlarda Janubiy Koreyada inson kapitalini rivojlantirishga yetarli e‘tibor qaratilmagan bo‘lsa-da, iqtisodiy islohotlar jarayonida bu omilning ahamiyati chuqur anglab yetildi. Natijada davlat siyosatida ta‘lim tizimini rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi.

Bugungi kunda mamlakatda 400 dan ortiq oliy ta‘lim muassasalari faoliyat yuritib, millionlab talabalar yuqori malakali mutaxassis sifatida tayyorlanmoqda. Ta‘lim tizimi amaliyot bilan

integratsiyalashgan bo‘lib, talabalar o‘qish jarayonida ishlab chiqarish korxonalarida tajriba orttiradilar. Bu esa ularning mehnat bozoriga tez moslashishini ta‘minlaydi.

Qishloq xo‘jaligi mamlakat yalpi ichki mahsulotida nisbatan kichik ulushga ega bo‘lishiga qaramasdan, ushbu sohada yuqori texnologiyalar keng qo‘llaniladi. Aqlli qishloq xo‘jaligi, avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli boshqaruv usullari inson kapitaliga bo‘lgan talabni oshiradi.

Janubiy Koreyada inson kapitalini kapitalizatsiya qilish jarayoni yuqori sifatli iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘langan. Qishloq xo‘jaligida ham yuqori samaradorlikka erishish uchun bilimli va malakali kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratiladi.

Shu bilan birga, mamlakatda qishloq hududlarida aholi sonining kamayishi va qarish tendensiyasi mavjud bo‘lib, bu mehnat resurslari tarkibiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli davlat tomonidan yoshlarni agrar sohalarga jalb etish, ularni moddiy rag‘batlantirish va zamonaviy bilimlar bilan ta‘minlashga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Koreya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inson kapitalini tizimli ravishda rivojlantirish, ta‘lim va innovatsiyalarni integratsiya qilish hamda yuqori texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo‘jaligida yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

AQSh tajribasi

AQSh qishloq xo‘jaligida inson kapitalidan samarali foydalanish bo‘yicha eng ilg‘or va tizimli yondashuvga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda agrar sektor yuqori darajada mexanizatsiyalashgan va innovatsion texnologiyalar asosida rivojlangan bo‘lib, bunda inson kapitali asosiy ishlab chiqarish omili sifatida qaraladi.

AQShda inson kapitalini rivojlantirish ta‘lim tizimi orqali bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Qishloq xo‘jaligi mutaxassislari bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichlarida tayyorlanadi. Ta‘lim jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga katta e‘tibor qaratiladi. Talabalar o‘qish davomida fermer xo‘jaliklari, agrofimlar va ilmiy markazlarda amaliyot o‘tash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

AQShda ta‘lim tizimi ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyalashgan. Universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari qishloq xo‘jaligi korxonalari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu esa ilmiy ishlanmalarni tezkor ravishda amaliyotga joriy etish va inson kapitalining innovatsion rivojlanishini ta‘minlaydi. Mamlakatda ilm-fan va ta‘limga yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmi yuqori bo‘lib, bu inson kapitalining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish maqsadida moddiy rag‘batlantirish tizimi keng qo‘llaniladi. Ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar yuqori daromad va grantlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnologiyalar — aniq dehqonchilik (precision farming), raqamli monitoring tizimlari, biotexnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv usullari keng qo‘llaniladi. Bunday tizimlarni samarali boshqarish uchun yuqori malakali mutaxassislar zarur bo‘lib, ular doimiy ravishda qayta tayyorlanadi.

AQShda qishloq xo‘jaligi sohasiga mutaxassislar tayyorlash keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, umumiy tayyorlanayotgan kadrlarning muayyan qismi aynan agrar yo‘nalishga to‘g‘ri keladi. Bu esa sohada malakali kadrlar yetishmovchiligining oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mehnatga haq to‘lash tizimi samaradorlikka asoslangan bo‘lib, inson kapitalining natijadorligiga bevosita bog‘liq. Bu esa xodimlarni yuqori samaradorlikka erishishga rag‘batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligida inson kapitalidan samarali foydalanish ta‘lim–ilm-fan–ishlab chiqarish integratsiyasi, kuchli rag‘batlantirish tizimi va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali ta‘minlanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligida inson kapitalidan samarali foydalanish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya va AQSh kabi davlatlarda inson kapitalini rivojlantirish strategik ustuvor yo‘nalish sifatida qaralib, ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy integratsiya orqali yuqori natijalarga erishilmoqda.

Ushbu mamlakatlarda inson kapitalini shakllantirish uzluksiz ta‘lim tizimi asosida amalga oshirilib, nazariy bilimlar amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlanadi. Ayniqsa, dual ta‘lim tizimi, ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanganligi va innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi

qishloq xo‘jaligi samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan inson kapitaliga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar, xodimlarni moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish tizimi hamda mehnat bozorining samarali tashkil etilishi agrar sohada yuqori malakali kadrlar shakllanishiga xizmat qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarish hajmi va sifatining oshishiga, oziq-ovqat xavfsizligining mustahkamlanishiga olib kelmoqda. Biroq ayrim mamlakatlarda, xususan rivojlanayotgan davlatlarda, inson kapitalidan foydalanishda muammolar ham mavjud. Jumladan, ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzilishlar, malakali kadrlar yetishmovchiligi, qishloq hududlaridan urbanizatsiya jarayoni natijasida mehnat resurslarining kamayishi kabi holatlar samaradorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish zarur:

- ta‘lim–ilm–fan–ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish;
- qishloq hududlarida sifatli ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirish;
- innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;
- inson kapitalini rag‘batlantirish va samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligida yuqori samaradorlikka erishish nafaqat moddiy resurslar va texnologiyalarga, balki inson kapitalining sifati, bilim darajasi va innovatsion salohiyatiga bevosita bog‘liqdir. Inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan izchil siyosat agrar sektorning raqobatbardoshligini oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Becker G.S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. — Chicago: University of Chicago Press, 1993. — 390 p.
2. Todaro M.P., Smith S.C. *Economic Development*. — 12th ed. — Boston: Pearson Education, 2015. — 870 p.
3. World Bank. *World Development Report 2008: Agriculture for Development*. — Washington, DC: World Bank, 2007. — 365 p.
4. FAO. *The State of Food and Agriculture 2020*. — Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2020. — 320 p.
5. OECD. *Innovation, Agricultural Productivity and Sustainability in Uzbekistan*. — Paris: OECD Publishing, 2019. — 150 p.
6. Psacharopoulos G., Patrinos H.A. Returns to Investment in Education: A Decennial Review of the Global Literature // *Education Economics*. — 2018. — Vol. 26, No. 5. — P. 445–458.
7. Feder G., Just R.E., Zilberman D. Adoption of Agricultural Innovations in Developing Countries: A Survey // *Economic Development and Cultural Change*. — 1985. — Vol. 33, No. 2. — P. 255–298.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari*. — Toshkent, 2023. — 120 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. *Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi*. — Toshkent, 2020.
10. Захарова Н.В. Развитие человеческого капитала в условиях инновационной экономики // *Экономика и управление*. — 2020. — № 3. — С. 45–52.
11. Озерова М.Г. Трудоустройство выпускников аграрных вузов // *Аграрная экономика*. — 2019. — № 7. — С. 60–66.
12. Barro R.J. Education and Economic Growth // *Annals of Economics and Finance*. — 2013. — Vol. 14, No. 2. — P. 301–328.
13. Romer P.M. Endogenous Technological Change // *Journal of Political Economy*. — 1990. — Vol. 98, No. 5. — P. 71–102.
14. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Aholi soni va tarkibi bo‘yicha statistik ma‘lumotlar*. — Toshkent, 2024. — 95 b.